BUXORO AMIRLIGIDA IJTIMOIY-IQTISODIY AHVOL

(XIX asrning ikkinchi yarmida)

Ismoilova Roxila Nortojiyevna

Mustaqil tadqiqotchi

https://orcid.org/0009-0009-2494-339X

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Unda amirlikning ijtimoiy tuzilishi, aholi tarkibi, yer-suv munosabatlari, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo, soliq tizimi hamda Rossiya imperiyasi bilan iqtisodiy aloqalarning kuchayishi kabi masalalar yoritiladi. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Buxoro amirligi ustidan siyosiy va iqtisodiy ta’siri kuchayib borgani, bu jarayonning mahalliy xo‘jalik tizimi va savdo munosabatlariga ta’siri tahlil qilinadi

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, XIX asr, ijtimoiy hayot, iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, yer-suv munosabatlari, hunarmandchilik, savdo, soliqlar, Rossiya imperiyasi, dehqonlar, hunarmandlar.

Аннотация. В данной статье на основе исторических источников анализируются социально-экономические процессы, происходившие в Бухарском эмирате во второй половине XIX века. Освещаются такие вопросы, как социальная структура эмирата, состав населения, земельно-водные отношения, сельское хозяйство, ремесленное производство, внутренняя и внешняя торговля, налоговая система, а также усиление экономических связей с Российской империей. Анализируется усиление политического и экономического влияния Российской империи на Бухарский эмират во второй половине XIX века и его воздействие на местную хозяйственную систему и торговые отношения.

Ключевые слова: Бухарский эмират, XIX век, социальная жизнь, экономика, сельское хозяйство, земельно-водные отношения, ремесло, торговля, налоги, Российская империя, крестьяне, ремесленники.

Abstract. This article analyzes the socio-economic processes that took place in the Emirate of Bukhara during the second half of the nineteenth century based on historical sources. It examines such issues as the social structure of the emirate, population composition, land and water relations, agriculture, handicrafts, domestic and foreign trade, the taxation system, and the growing economic ties with the Russian Empire. The article analyzes the increasing political and economic influence of the Russian Empire over the Emirate of Bukhara during the second half of the nineteenth century and examines its impact on the local economic system and trade relations.

Keywords: Emirate of Bukhara, nineteenth century, social life, economy, agriculture, land and water relations, handicrafts, trade, taxation, Russian Empire, peasants, artisans.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XIX asrning ikkinchi yarmi Buxoro amirligi tarixida murakkab siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar davri hisoblanadi. Bu davrda bir tomondan amirlikda an’anaviy boshqaruv va xo‘jalik munosabatlari saqlanib qolgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga kengayib borishi natijasida Buxoroning tashqi va ichki iqtisodiy hayotida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Buxoro amirligi agrar davlat bo‘lganligi bois iqtisodining negizini yer-mulk munosabatlari tashkil etgan. Aholining katta qismi qishloq xo‘jalik ishlari bilan band bo‘lib, unumdor, sersuv hududlarda asosan dehqonchilik, dasht va cho‘l zonalarida esa chorvachilik bilan shug‘ullangan. Tog‘ yonbag‘irlari va tog‘oldi hududlarida xo‘jalikning aralash turlari ham rivojlangan va bu yerda istiqomat qilgan aholi dehqonchilik bilan bir qatorda chorvadorlik bilan ham mashg‘ul bo‘lishgan. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishda suv manbai va unumdor yerlarga boy bo‘lgan hududlar yetakchilik qilgan hamda bu joylarda aholining turmush darajasi nisbatan yaxshi bo‘lgan. Suv ta’minoti muammoli

mintaqalarda aholi qiyinchiliklarga duch kelgan va bu narsa ba’zan ularning qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatib turgan. Qishloq xo‘jaligida donli va dukkakli ekinlardan bug‘doy, arpa, jo‘xori, tariq, no‘xat, sholi, kungaboqar; texnik ekinlaridan esa paxta, zig‘ir, kunjut ko‘proq yetishtirilgan. Shuningdek, sabzavotlardan piyoz, sabzi, turp, lavlagi, bodring bilan bir qatorda poliz mahsulotlari, jumladan qovun, tarvuz, qovoq kabi ekinlar ekilgan. Chekka hududlarda yerga ishlov berishning eski usullaridan foydalanilgan, markaziy va suvga serob hududlarda esa qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishda nisbatan yangicha yondashuvlarga tayanilgan. Sharqdagi barcha musulmon mamlakatlari singari Buxoro amirligi ham qishloq xo‘jaligi sohasida o‘sha davrning ilg‘or usullarni qo‘llash, yangi mehnat vositalardan unumli foydalanish va bu sohani rivojlantirishga ilmiy yondashuv jihatidan qoloqligicha qolayotgan edi. Ye.K.Meyendorf amirlikda istiqomat qiluvchi aholining aksariyat qismi qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanishini qayd qilib, bu sohadagi kamchilik va nuqsonlarni alohida ko‘rsatib o‘tgan. U dehqonchilikda suvning yetishmasligi, shuningdek, dehqonlar yerga ishlov berish va ekin ekishda zamonaviy usullardan foydalanmasligi, eski usul dehqonchilik taraqqiy etishi hamda yuqori hosildorlikka salbiy ta’sir qilishini ta’kidlagan [1]. Buxoro amirligi qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan va lalmikor yerlarda dehqonchilik qilishgan. Hosildorlik yaxshi bo‘lgan yillarda, bir desyatina yerga sepilgan urug‘dan 60 pudgacha [2] hosil olingan.[3] Qishloq xo‘jaligida dehqonlar bug‘doyning sarachenskiy [4] navini ko‘proq ekishgan. Shuningdek, arpa, tariq, kunjut, jo‘xori kabi ekinlar ham xo‘jalikda asosiy ekin turlaridan hisoblangan. [5]

ASOSIY QISM (ОСНАВНАЯ ЧАСТЬ / MAIN PART). XIX asr oxiri – XX asr boshlarida amirlikda 2 mln. 700 ming desyatina yerda dehqonchilik qilingani

1 десятина-1,09 гектарга тенг.
2 Бир пуд – 16 кг тенг.
3 Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. – Ташкент: ЦСУ Туркреспублики, 1922. – С. 11.
4 Россиядан келтирилган буғдой уруғи назарда тутилган
5 Ханыков Н. Описание Бухарскаго ханства. – СПб., 1843. – С. 148-149.

to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan[6]. Boshoqli ekinlar Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo va Amudaryoning yuqori qismida ko‘proq ekib kelingan. Arxiv manbalarida bu hududlarda 600 ming desyatinadan ortiq lalmi yer bo‘lib, 60 foiziga bug‘doy, 25 foiziga arpa, qolgan qismiga esa boshqa ekinlar ekilganligi qayd qilingan [7]. Dehqonlar lalmi yerlarda tariq va kunjut ham yetishtirgan. Surxondaryo, Surxob va Vaxsh vohalarida taxminan 15 ming gektardan ortiq yerga tariq ekilib [8], bir tanob yerdan 25-30 pudgacha tariq, zig‘irdan esa 12-15 pudgacha hosil olingan [9].

B.I.Iskandarov Amudaryoning yuqori va o‘rta oqimida joylashgan Fayzobod, Kofirnihon, Denov, Boysun va Sherobod hududlarida 130 ming ga g‘alla, 34 ming ga sholi, 24 ming ga arpa, 20 ming ga kunjut, 17 ming ga zig‘ir, 7 ming ga tariq, 50 ming ga jo‘xori, 10 ming ga beda, 500 ming ga paxta, 6500 ga poliz va tomorqa, 3400 ga uzum yetishtirilganligini yozadi [10]. Shuningdek, Qorategin, Darvoz, Rushon va Shug‘non bekliklarida 500 ming desyatina yerda dehqonchilik qilinib, yerlarning asosiy qismiga bug‘doy ekilganini ta’kidlaydi [11]. Sharqiy Buxoro amirlik va qo‘shni xonliklarni bug‘doy bilan ta’minlashda yetakchilik qilgan. Hisor, Ko‘lob, Qo‘rg‘ontepa va Baljuvon bekliklari yiliga 4 mln. puddan ortiq g‘allani Xiva xonligi va Turkiston o‘lkasiga eksport qilgan [12]. K.K.Palen Sharqiy Buxoroda yiliga taxminan 13 mln. 200 ming pud [13], D.N.Logofet va I.A.Stetsenkolar esa yiliga 14 mln. pud bug‘doy hosili yig‘ib olinganini ma’lum qilgan [14].

---

6 Губареич-Радобыльский А. Экономический очерк Бухары и Туниса. – СПб., 1905. – С. 18.

7 ЎзМА, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 996-иш, 2-варақ.

8 ЎзМА, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 995-иш, 2-варақ.

9 Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб., 1911. Т. II. – С. 98.

10 Искандаров Б.И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX в. Ч. II. – Душанбе: АН Тадж. ССР, 1963. – С. 184.

11 Искандаров Б.И. О некаторых изменениях в экономике Восточной Бухары на рубеже XIX-XX вв. Тр.АН. Тадж. ССР. Т. 83. – Душанбе, 1958. – С. 6.

12 Стеценко И.А. Из истории народных движений в Таджикистане ... – С. 27.

13 Пален К.К. Материалы к характеристкие народного хозяйства в. Туркстане. СПб.,1911. – С. 443-444.

14 Стеценко И.А. Из истории народных движений в Таджикистане во второй половине XIX–начале XX вв (1870-1917гг). – Душанбе: АН Тадж. ССР, 1963. – С. 27.

Amirlikda dehqonlar sholi yetishtirishda ham ma’lum tajribaga ega bo‘lgan. Sholi Hisor, Surxon, Surxob, Vaxsh, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida ekilgan. Xususan, Sharqiy Buxoroda 84 ming desyatina yerga sholi ekilgan [15]. Hisor bekligida 34 ming desyatina yerga sholi ekilib, amirlikda yetakchilik qilgan. Shuningdek, Miyonqol, Shahrisabz [16], Sarijo‘y va Denov bekliklarida ham sholining sifatli navi ekilib, Buxoro amirligining turli hududlari va Turkiston o‘lkasiga savdoga chiqarilgan [17].

Makkajo‘xori ham amirlikda asosiy ekin turlaridan biri sanalgan[18], bu ekin amirlikning barcha bekliklarida yetishtirilgan. Mahalliy jo‘xori juda hosildor bo‘lib, bir desyatina yerdan 300 pudgacha hosil olingan [19]. I.A.Remez Buxoro amirligida 200 ming desyatina yerga makkajo‘xori ekilib, bu umumiy ekin maydonining 12 foizini tashkil qilganligini yozadi [20]. K.K.Palen esa 130 ming desyatina yerga makkajo‘xori ekilib, undan aholi yaxshi hosil olganligini qayd qiladi [21].

Qishloq xo‘jaligida poliz ekinlarining barcha turlari yetishtirilgan. Amirlikda poliz ekinlarini ekish joyiga qarab qisman bir-biridan farq qilgan. Masalan, Buxoroning g‘arbiy hududlarida qovunning ertapishar va kechki navlari ekilgan. Ertapishar qovunning 10 xil turi [22], Ko‘kcha, Sheroziy, Qashqari, Bekzoti, Shakar-Pora, Zangori-Safid, Zangori-Siyo, Bo‘rikalla, Qoraqiz, Barganoy, kechki qovunning esa 6 xil – Obi Novvot, Qora qo‘tir, Chorjo‘y, Qoraqiz, Shakarpora, Zarmitani turlari yetishtirilgan. Qovoqning esa 9 xil: Olapo‘choq, Kaduizyard, Kadusafet, Kadu urganji, Dastar kadi, Chilim kadi, Saroxi, Nos kadi va Cho‘p kadi navlari ko‘proq ekilgan [23].

15 Пален К.К. Материалы к характеристкие народного хозяйства ... – С. 443-444.
16 Джурабоев Д.Х. Бухарский эмрат второй половине XVIII–первой половине XIX вв. в письменных источниках: Дисс... на соискание степени доктара исторических наук.–Хужанд, 2014. – С. 243.
17 Стеценко И.А. Из истории народных движений в Таджикистане... – С.28.
18 Пален К.К. Материалы к характеристкие народного хозяйства ... – С. 444.
19 ЎзМА, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 115-иш, 2-варақ.
20 Ремез И.А. Веншняя торговля Бухары до миравой войны... С.11.
21 Пален К.К. Материалы к характеристкие народного хозяйства ... – С. 444.
22 Ханыков Н. Описание Бухарскаго ханства... – С. 137.
23 Ханыков Н. Описание Бухарскаго ханства... – С. 141.

Buxoro amirligida bog‘dorchilik ham yaxshi rivojlanib, aholining daromad manbai hisoblangan. Bog‘dorchilikda o‘rik, bodom, shaftoli, anor, behi, nok, olma, olxo‘ri, gilos, anjir, yong‘oq, tut, pista, uzum yetishtirilgan [24]. Bular orasidan yong‘oq, pista, anor, uzum kabi mevalar xaridorgir hisoblanib, Rossiya va Yevropa mamlakatlariga eksport qilingan. N. Ханыkov Buxoro amirligida aholi bog‘dorchilikdan katta foyda ko‘rishi, lekin bu qulaylikdan unumli foydalanilmasligi, natijada ular ruslarning qimmat shakarini sotib olishlari haqida yozadi [25]. M.A.Abduraimov amirlik aholisi bog‘dorchilik mahsulotlarini o‘zlari iste’mol qilib, uning bir qismini Rossiyadan keltirilgan shakarga ayirboshlashini ta’kidlagan [26].

O‘rta Osiyoda Buxoro bog‘bonlari uzum yetishtirish borasida ancha ilgarilab ketishgan. Karmana, Xatirchi, Nurota, Shahrisabz, G‘uzor, Chiroqchi, Qarshi, Kattaqo‘rg‘on, Miyonkol, Qorako‘l va Buxoro tumanlari uzum yetishtirish markazlari hisoblangan[27]. Ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro shahri va uning atrofida uzumning 12 xil navi yetishtirilgan[28]. Uzumning ayrim navlari iste’mol uchun ishlatilgan bo‘lsa, boshqa turlaridan mayiz tayorlangan. Uzumning shibirg‘on va maska navlaridan sifatli mayiz olingan. Amirlikda kishmish mayizi mashhur bo‘lib, u soyaki va oftobi turlariga bo‘lingan. Bu turdagi mayizlar ko‘proq xorijiy davlatlarga eksport qilingan[29]. Sharqiy Buxoroning Sarijo‘y va Denov bekliklari uzum yetishtirishda yetakchi sanalgan. Sarijo‘y bekligidagi Gazarak va Xufar kabi qishloqlar o‘z uzumlari, Dashnobod qishlog‘i esa anorlari bilan nafaqat amirlikda, balki O‘rta Osiyo va hatto Yevropaning ba’zi mamlakatlarida ham mashhur

24 Абдураимов М.А. Очерки аграрных отнашений в Бухарском ханстве в XVI– первой половине XIX века. – Ташкент, 1966. Т. I. – С. 226.
25 Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства... – С. 121.
26 Абдураимов М.А. Очерки аграрных отнашений в Бухарском ханстве... – С. 225.
27 Логофет Д.И. Бухарское ханство под протекторатом... – С. 103-104.
28 Ханыков Н. Описание Бухарскаго ханства... – С. 121.
29 Демезона П.И. Виткевича И.В. Записки о Бухарском ханстве. – М.: Восточной лит, 1983. – С. 77.

bo‘lgan[30]. Denov bekligidagi Hovuz, Sina va Vaxshivor qishloqlari uzumchilikda dongdor bo‘lib, uzumning 20 dan ortiq navlari yetishtirilgan [31].

Qishloq xo‘jaligida tamaki ham yetishtirilgan. Bu ekin Kattaqo‘rg‘on va Qarshi atrofidagi keng hududlarda ko‘p miqdorda ekilgan[32]. D.X.Djuraboev Qarshi va Miyonqolda katta hududda tamaki ekilib, Qarshi tamakisi o‘zining sifati bo‘yicha amirlikning boshqa joylarida yetishtirilgan tamakilardan farq qilishini aytadi [33]. Shuningdek, Shahrisabz bekligida 2 ming desyatina yerga, Yakkabog‘ va Denov bekliklarida ham qisman tamaki ekilib, bir tanob yerdan 3-3,5 pudgacha hosil olingan[34]. Bu ekin turi katta mehnat, bilim va tajriba talab qilganligi uchun boshqa bekliklarda deyarli ekilmagan.

Ko‘p suv va mehnat talab qilgan paxta ekini XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib amirlik qishloq xo‘jaligida asosiy ekin turiga aylandi. Texnik ekin turiga kiruvchi paxta chigitini qadash 15 apreldan 25 aprelgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, uning hosilini yig‘ib-terib olish 15 avgustdan 10 sentabrgacha davom etgan [35]. XIX asrning 50–60-yillarida, asosan, g‘o‘zaning mahalliy Buxoro navi ekilib, u sifati va tolasining uzunligi (22-23 mm.) bilan ajralib turgan. G‘o‘zaning bu navi O‘rta Osiyoda yetishtiriladigan boshqa paxta navlariga nisbatan sifatli va xaridorgir hisoblangan[36]. Shu davrda paxtaning yana ikki xil navi ekilgan bo‘lib, birinchisi – “G‘o‘zai safed” sifati ancha yuqoriligi bilan ajralib turgan. Ikkinchisi – “G‘o‘zai maka” esa qizil rangda bo‘lib, uning chigitidan asosan yog‘ olingan[37].

Rossiyada to‘qimachilik sanoatining rivojlanishi yangi bozorlar va xomashyo manbalariga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirdi. 1861-1864 yillarda AQShdagi fuqarolar

30 Туркестанские ведомости. 1879. №36.

31 Кармышева Б.Х. О торговле в восточных бекствах Бухарского ханства в начале XX в. в связи с хозяйственной специализацией // Товарно-денежные отношения на Ближнем и Среднем Востоке в эпоху средневековья. – М.: Наука, 1979. – С. 119.

32 Ханыков Н. Описание Бухарскаго ханства ... – С. 144.

33 Джурабоев Д.Х. Бухарский эмрат второй половине XVIII–первой половине XIX вв ... – С. 243.

34 Хакимова К.З., Кравец Л.Н. Социально-экономические отношения и классовая борьба в дореволюционном Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1980. – С.43.

35 Джурабоев Д. Х. Бухарский эмрат второй половине XVIII–первой половине XIX вв ... – С. 233.

36 Хакимова К.З., Кравец Л.Н. Социально-экономические отношения ... – С. 44.

37 Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства ... – С. 143.

urushi natijasida Rossiyaning paxtaga ixtisoslashgan korxonalarida xomashyo muammosi yuzaga kelgan. Mazkur muammolarni bartaraf qilish maqsadida rus hukumati O‘rta Osiyoda paxta ekin maydonlarini kengaytirishga e’tibor qaratdi. Masalan, Rossiyaning paxta bilan ishlovchi sanoat sohasi 1885 yili 7 mln. pud, 1895 yilda 8,5 mln. pud, 1905 yilga kelib esa 18 mln. pud paxtani qayta ishlagan[38].

O‘rta Osiyoda paxtadan yuqori va sifatli hosil olish uchun paxtaning Amerika navi ekila boshlandi. Bu jarayon amirlikni ham chetlab o‘tmadi. Dastavval Buxoroga 2 pud Amerika paxta navi urug‘ini Said Ma’ruf ismli shaxs V.A.Bikovskiy savdo uyi orqali olib kirgan. Amirlikda ilk bor 1860 yilda paxtaning Amerika navi ekilib, undan 10 pud hosil olingan. 1861 yilda esa 21 pud shu navli hosil yetishtirilgan[39].

1888 yilda rus savdogari S.Mazov Buxoro hukumatidan 30 desyatina yerni ijaraga olib, u yerda Amerika paxta navini ekib, uning mahalliy paxtaga nisbatan ko‘proq hosil berishini isbotlab bergan[40]. Lekin Amerika paxtasi ortiqcha mehnat va ko‘p suv talab qilgan hamda mahalliy sharoitga ham uncha moslashtirilmagan edi. Garchi[41], bozorlarda Amerika paxtasining narxi 12 rubl bo‘lib, mahalliy paxta (g‘o‘za)dan 2 rubl qimmat turgan[42].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ / RESULTS AND DISCUSSION) Tadqiqot natijalari XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida bir vaqtning o‘zida ikki xil tendensiya mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Amerika paxtasi ko‘p mehnat talab qilishiga qaramasdan, Buxoro amirligida paxtaga mo‘ljallangan ekin maydonlari kengayib boradi. 1887 yilda Kudrin savdo-sanoat sherikchilik shirkati 20 ming pud Amerika paxta urug‘ini Toshkent, Marg‘ilon va Buxoro shahri atrofida yashovchi

38 Терентьев М.А. Англия и Россия в борьбе за рынки. – СПб., 1876. – С. 112.

39 Аманова Ф. Бухоро амирлиги иқтисодиётида саноат корхоналарининг тутган ўрни (XIX асрнинг охири XX аср бошлари): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс ... – Тошкент, 2021. – Б. 62.

40 Тухтаметов Т.Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX–начале XX вв. – Ташкент: Фан, 1966. – С. 62.

41 Бухоро тангаси 22 рубль 90 копеейк рус пулига тўғри келган.

42 Шахназаров А. Очерки сельского хозяества Туркестанского края. – СПб., 1898. – С. 61.

dehqonlarga hech qanday shartlarsiz tarqatgan. 1889 yilda sherikchilik jamiyati Chorjo‘y kontorasidan ham dehqonlarga Amerika paxta urug‘ini bera boshlagan [43]. Buxoro amirligida 1904-1905 yillarda 100 ming pud, 1906 yilda 150 ming pud, 1908 yilda esa 200 ming pud[44] Amerika paxta navi yetishtirilgan. Zirabuloq va Ziyodin hududlarida Amerika paxta navi yetishtirishga to‘liq o‘tilgan. Karmana, Pirmast va G‘ijduvon kabi tumanlarda ham xuddi shu navdan qisman ekilgan. 1909 yilga kelib Buxoro amirligi bo‘yicha 1 mln. 200 ming pud, 1910 yilda esa 1 mln. 920 ming pud har xil navdagi paxta hosili yetishtirilgan[45]. Arxiv hujjatlarida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro paxtachilik tumanlarida 1911 yildan boshlab paxta yetishtirish keskin kamaygan. Masalan, 1911 yili Buxoro amirligida paxta yetishtirish ko‘rsatkichi 950 ming pudga, 1912 yili esa 720 ming pudga tushib ketgan. Paxta hosildorligining keskin kamayib ketishi natijasida Rossiya imperiyasi amirlik hududida paxtachilikni rivojlantirishga ehtiyoj sezdi. Shundan so‘ng dehqonlarga paxta urug‘ini avans sifatida tarqata boshladilar. Bu tadbir qisman bo‘lsa-da o‘z samarasini berdi: paxta ekin maydonlari kengayib, hosildorlik oshishiga sabab bo‘ldi. 1913 yilda 60 ming desyatina yerga mahalliy, 2 ming desyatina maydonga Amerika paxta navi ekilib, yig‘ib olingan paxta hosili 2 mln. 375 ming pudni tashkil qilgan[46]. 1915 yilga kelib esa paxta ekin maydoni 100 ming desyatinaga yetkazilib (shundan 51,3 desyatina yerga Amerika paxta navi ekilgan) [47], 3 mln. pud atrofida hosil yetishtirilgan[48].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytish mumkinki, XVIII asrning dastlabki yarmida Buxoro xonligining hududi sezilarli darajada torayib ketdi. Bu jarayon, asosan, Ashtarxoniylar sulolasi vakillari

43 ЎзМА, И 3-жамғарма, 1-рўйхат, 335-иш, 85-варақ.
44 ЎзМА, И 3-жамғарма, 1-рўйхат, 335-иш, 44-варақ.
45 ЎзМА, И 3-жамғарма, 1-рўйхат, 563-иш, 27-варақ. [59]
ЎзМА, И 3-жамғарма, 1-рўйхат, 540-иш, 4-варақ.
46 ЎзМА, И 3-жамғарма, 1-рўйхат, 369-иш, 18-варақ.
47 Расулев Л.Р. К истории хлопководства в Бухаре конца XIX – начала XX века // Общественные науки в Узбекистане. № 7. 1969. – С. 50.
48 Бабаханов М. Фирмы и их роль в экономике Восточной Бухары // Из истории культурного строительства в Таджикистане. Вып. IV. – Душанбе, 1973. – С. 30.

o‘rtasidagi ichki nizolar natijasida yuzaga kelgan. Biroq asrning ikkinchi yarmiga kelib, hokimiyat tepasiga mang‘itlar sulolasi kelgach, amirlik o‘z hududlarini asta-sekin kengaytira boshladi. Bu kengayish Miyonqol vohasi, Panjikent shahri, Amudaryoning o‘ng sohillari va Sharqiy Buxoro yerlari hisobiga amalga oshirildi. Shu davrda viloyatlarni boshqarayotgan shaxslar avval “hokim”, keyinchalik esa “bek” unvoni bilan atalgan. Ma’muriy tuzilma esa qishloq, mavze va daha kabi kichik birliklarga ajratilgan edi.

Aholining asosiy qismini o‘zbeklar tashkil qilgan bo‘lsa, ularning ortidan tojiklar va turkmanlar yashagan. Shuningdek, yahudiy, arab, lo‘li va afg‘on millatiga mansub kishilar ham amirlik hududida istiqomat qilganlar.

ADABIYOT VA MANBALAR RO’YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /REFERENCES):

Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. – Ташкент: ЦСУ Туркреспублики, 1922. – С. 11.

Губареич-Радобыльский А. Экономический очерк Бухары и Туниса. – СПб., 1905. – С. 18.

Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб., 1911. Т. II. – С. 98.

Искандаров Б.И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX в. Ч. II. – Душанбе: АН Тадж. ССР, 1963. – С. 184.

Джурабоев Д.Х. Бухарский эмрат второй половине XVIII–первой половине XIX вв. в письменных источниках: Дисс... на соискание степени доктара исторических наук.–Хужанд, 2014. – С. 243.

ЎзМА, И 126-жамғарма, 1-рўйхат, 115-иш, 2-варақ.

ЎзМА, И 3-жамғарма, 1-рўйхат, 335-иш, 85-варақ.